



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEK TILI ONOMASTIK BIRLIKLAR TIZIMIDA TRANSONIMIZATSIYA: NAZARIY ASOSLARI VA FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sativoldiyeva Dildora Sadridin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, doktoranti

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tili onomastikasida transonimizatsiya hodisasi, uning mohiyati va namoyon bo‘lish shakllari tahlil qilinadi. Onomastik makro va mikroko‘lam birliklarining o‘zaro bog‘liqligi asosida bir turdagi atoqli otlarning boshqa turga o‘tish jarayoni misollar yordamida yoritiladi. Shuningdek, transonimizatsiyaning tashqi va ichki turlari hamda uning antroponim, toponim, etnonim va boshqa onomastik birliklar doirasida amalga oshishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida transonimizatsiya o‘zbek tili onomastik tizimini boyituvchi va yangi nomlar hosil qiluvchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: transonimizatsiya, onomastika, atoqli ot, antroponim, toponim, etnonim, oykonim, makroko‘lam, mikroko‘lam, nominatsiya, transtoponimizatsiya

ТРАНСОНЕМИЗАЦИЯ В СИСТЕМЕ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНО- СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Сативолдиева Дилдора Садриддин кизи

Наманганский государственный педагогический институт, докторант

Аннотация

В статье анализируется явление трансонимизации в узбекской ономастике, его сущность и формы проявления. На основе взаимосвязи макро- и микросистем ономастических единиц освещается процесс перехода одного типа собственных имён в другой на конкретных примерах. Также рассматриваются внешние и внутренние виды трансонимизации, а также её реализация в рамках антропонимов, топонимов, этнонимов и других ономастических единиц. В результате исследования установлено, что трансонимизация является одним из важных факторов, обогащающих ономастическую систему узбекского языка и способствующих образованию новых имён.

Ключевые слова: трансонимизация, ономастика, собственное имя, антропоним, топоним, этноним, ойконим, макросистема, микросистема, номинация, транstopонимизация

TRANSONYMIZATION IN THE SYSTEM OF ONOMASTIC UNITS OF THE UZBEK LANGUAGE: THEORETICAL FOUNDATIONS AND FUNCTIONAL-SEMANTIC FEATURES

Sativoldiyeva Dildora Sadridin qizi

Namangan State Pedagogical Institute, Doctoral Student

Abstract

The article analyzes the phenomenon of transonymization in Uzbek onomastics, its essence and forms of manifestation. Based on the interrelation of macro- and micro-level onomastic units, the process of transition from one type of proper name to another is illustrated with examples. The study also considers internal and external types of transonymization, as well

as its realization within anthroponyms, toponyms, ethnonyms and other onomastic units. The results show that transonymization is one of the important factors enriching the onomastic system of the Uzbek language and contributing to the formation of new names.

Keywords: transonymization, onomastics, proper name, anthroponym, toponym, ethnonym, oikonym, macro-level, micro-level, nomination, transtoponymization

Tilning onomastik makro, mikro va superko‘lamlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular yaxlit bir tizimni, ya‘ni tilning onomastik birliklar sistemasini tashkil etadi. Mazkur birliklar o‘zaro aloqador holda yashaydi va rivojlanadi; shu bois bir ko‘lamga mansub birlikning boshqa ko‘lamga o‘tishi tabiiy hodisa sanaladi. Onomastikada bir tipdagi atoqli otning boshqa tipdagi atoqli otga o‘tishi **transonimizatsiya** (lot. *trans* – orasidan, ichidan + *onoma* – nom) deb ataladi.

O‘zbek tili onomastikasida transonimizatsiya asosida yuzaga kelgan nomlar nihoyatda ko‘p uchraydi. Masalan: **xitoy** (etnonim) > **Xitoy** (ariq – gidronim, Uchqo‘rg‘on tumani, Qayqi qishlog‘i), **elaton** (etnonim) > **Elaton, yashiq** (etnonim) > **Yashiq** (qishloq – komonim, ariq – gidronim, Uchqo‘rg‘on tumani), **bag‘ish** (etnonim) > **Bag‘ish** (ariq – gidronim, Chortoq tumani), **baymoq** (etnonim) > **Baymoq** (qishloq – oykonim, ariq – gidronim, Chust tumani), **Toshkent** (polisonim) > **Toshkentboy** (antroponim), **Mallaxon** (antroponim) > **Mallaxon** (ariq – Uychi tumani, Qizilravot qishlog‘i), **Toshboy** (ism – antroponim) > **Toshboy** (ariq – gidronim, Uchqo‘rg‘on tumani, Baxt qishlog‘i), **Kal Hasan** (laqab, ism – antroponim) > **Kal Hasan** (ariq – Namangan tumani), **Niyozshalg‘am** (ism, laqab – antroponim) > **Niyozshalg‘am** (Namangan tumani) va boshqalar. Ko‘rinadiki, bunda antroponim, etnonim, zoonim, kosmonim, geortonim va mifonimlar, shuningdek, bir toponimdan boshqa toponimlar hosil bo‘lgan. Demak, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot yasalgan.

Rus tilshunosligida oykonimlar, antroponimlar, poetonimlar makro va mikroko‘lamiga xos transonimizatsiya masalalari A.V. Superanskaya, M.V. Gorbanevskiy, Yu.O. Karpenko, T.V. Chub, M.V. Yakovenko, T.I. Larina, E.A. Kravchenko va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunosligida esa transtoponimizatsiya hodisasi E. Begmatov, T. Nafasov, Z. Do‘simov, N. Oxunov, N. Uluqovlar tomonidan antroponimika, toponimika va gidronimikaga doir monografik tadqiqotlarda qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, u alohida monografik planda tadqiq etilmagan.

N.V. Podolskaya transonimizatsiyani “bir toifadagi onimning boshqasiga o‘tishi” deb talqin etadi. V.I. Suprun esa ushbu hodisani onomastik ko‘lam taraqqiyotining ko‘rinishi sifatida baholaydi. Albatta, bu fikrlarda muayyan asos mavjud. Chunki transonimizatsiya usulida bir atoqli otdan boshqa atoqli ot, ya‘ni bir onomastik birlikdan boshqa onomastik birlik hosil bo‘ladi va shu tariqa nomlar tizimi boyib boradi.

Tadqiqotchilar transonimizatsiya hodisasini onomastik universalialar qatoriga ham kiritadilar. Ularning talqinicha, transonimizatsiya onomastikadagi universalizmni yaratuvchi va ta‘minlovchi nutqiy-lisoniy, sotsial-ijtimoiy hamda tarixiy-ma‘naviy hodisadir.

I. Mirzayevning qayd etishicha, apellyativlardan hosil qilingan onimlar ayni bir paytda toponim, antroponim, zoonim va boshqa birliklar vazifasida qo‘llanishi mumkin. Bu holat tilning shakldoshlik va ma‘nodoshlik imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Demak, transonimizatsiya natijasida ayrim onomastik birliklar doirasida shakldoshlik va ma‘nodoshlik yuzaga keladi.

Lug‘aviy ma‘nosidan kelib chiqqan holda, ayrim adabiyotlarda transonimizatsiya hodisasiga nisbatan **nom o‘tishi** termini muqobil ravishda qo‘llanadi. Z. Do‘simov va M. Tillayevalarning talqiniga ko‘ra, onomasiologik nuqtayi nazardan turli tipdagi so‘zlarning toponimlarga aylanishi **transpozitsiya** hodisasi sifatida qaralishi lozim. Ular konversiya va transonimizatsiya usullariga nisbatan transpozitsiya terminini qo‘llaydilar hamda uning quyidagi uch turini ajratadilar:

1. kategoriyalararo transpozitsiya;
2. tashqi transpozitsiya;

3. ichki transpozitsiya.

Mualliflar ichki transpozitsiya deganda toponimlarning bir obyekt nomidan boshqa obyekt nomiga ko'chirilishini tushunadilar. Garchi bu jarayonda toponimning ma'nosi tubdan o'zgarib ham, ular ifodalagan obyektning boshqaligi toponimning semantik strukturasi ta'sir etadi. Avvalo, toponimning muayyan obyekt haqidagi informatsiya ifodalash qobiliyati qisqaradi. Boshqa obyektning nomi sifatida vujudga kelgan toponim keyingi obyekt haqida faqat adres yoki marka sifatida xizmat qiladi. Shubhasiz, toponim motivatsiyasida ham o'zgarish yuz beradi.

Transtoponimizatsiya hodisasining mohiyatini T. Nafasov quyidagicha izohlaydi: "Har qanday xalq yoki hudud joy nomlari majmuining boyib, takomillashib borishini ta'minlovchi manbalardan biri — nomlarning bir-biriga o'tishidir".

Olimlarning ko'rsatishicha, toponimlarning, ya'ni bir obyekt nomining ikkinchi obyekt nomiga ko'chishida ikki yo'lni farqlash lozim:

1. nom aholining emigratsiyasi bilan bog'liq holda, ya'ni ularning dastlabki joyidan boshqa yerga ko'chishi natijasida shu joy nomining ham yangi hududga ko'chirilishi;
2. muayyan nomning boshqa yerdagi aholiga yoqib qolishi natijasida ko'chirilishi.

Ko'rinadiki, ikkinchi usul nisbatan kam uchraydi.

Bizningcha, aynan bir toponimning boshqa obyekt nomiga o'tish omillari ancha kengdir.

Bunday omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. muayyan iqtisodiy, ijtimoiy yoki tabiiy sabablar bilan aholining boshqa hududga ko'chishi;
2. bir obyektning nomlashda ikkinchi bir obyektga nisbat berilishi;
3. makro va mikro toponimlar guruhi, ya'ni ko'cha, daha, guzar nomlarining shahar, qishloq va mahalla nomlari bilan bog'liqligi.

Transtonimizatsiya amal qilish doirasiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. tashqi transtonimizatsiya;
2. ichki transtonimizatsiya.

Tashqi transtonimizatsiya makro va mikroko'lamlar doirasida amal qiladi. Bunda ma'lum onomastik makro va mikroko'lam birliklaridan boshqa makro yoki mikroko'lam birliklari hosil qilinadi. Masalan: **Navoiy** (taxallus – antroponimik birlik) > **Navoiy shohko'chasi** (godonim – toponimik birlik), **Navro'z** (bayram nomi – geortonim) > **Navro'z MFY** (komonim – toponimik birlik), **qayqi** (etnonim) > **Qayqi qishlog'i** (komonim – toponimik birlik), **nayman** (etnonim) > **Nayman** (qishloq nomi – komonim) va boshqalar.

Ichki transtonimizatsiya esa muayyan onomastik makroko'lam doirasida amal qiladi. Bunda aynan ma'lum onomastik makroko'lamga xos mikroko'lam birliklari biri ikkinchisiga o'tadi, ya'ni biridan boshqasi hosil qilinadi. Masalan, Chortoq tumanining Muchum QFYdagi mahallalardan biri "**O'zbekiston**" deb ataladi, shu mahalladagi asosiy ko'cha ham unga nisbat berilib "**O'zbekiston**" deb nomlangan. Demak, **xoronom** (*O'zbekiston Respublikasi*) dan **oykonim** (*O'zbekiston mahallasi*), undan esa **godonim** (*O'zbekiston ko'chasi*) hosil qilingan.

Transtonimizatsiya qanday birliklar hosil bo'lishi nuqtayi nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Transantroponimizatsiya

Antroponimning bir tipdan boshqa tip nomga, antroponimik yoki boshqa onomastik birlikka o'tishi. Masalan: **Usmon Nosirov** (ism, familiya – antroponim) > **Usmon Nosir** (taxallus – antroponim), **Zulfiya Isroilova** > **Zulfiya, Usmon Azimov** > **Usmon Azim, Oybek** (taxallus) > **Oybek ko'chasi** (godonim) va boshqalar.

Transantroponimizatsiya o'zbek tilida juda faol hodisalardan biridir. Masalan: **Alisher Navoiy** (taxallus – antroponim), **Alisher Navoiy ko'chasi**, **Navoiy shohko'chasi**, **Navoiy viloyati**, "**Navoiy**" romani, "**Navoiy**" videofilmi va hokazo.

2. Transtoponimizatsiya

Toponimning bir tipdan boshqa tip nomga o'tishi. Shuningdek, aynan bir turdagi toponimdan boshqa toponim turlarining hosil bo'lishi ham transtoponimizatsiya sanaladi.

Masalan: **Chortoq shahri** (polisonim) > **Chortoq tumani** (xoronim), **Mustaqillik MFY** (komonim) > **Mustaqillik ko'chasi** (godonim), **Toshkent shahri** > **Toshkentboy**, **Qo'qon shahri** > **Qo'qonboy**, **Qo'qonjon** va boshqalar.

3. Transetnonimizatsiya

Etnonimning boshqa tip nomga o'tishi. Masalan: **yashiq** (etnonim) > **Yashiq MFY** (oykonim), **qo'g'ay** (etnonim) > **Qo'g'ay MFY**, **qozoq** (etnonim) > **Qozoqboy** (antroponim), **qirg'iz** > **Qirg'izboy**, **qo'ng'iroq** > **Qo'ng'iroqboy** va boshqalar.

4. Transmifonimizatsiya

Mifonimlarning bir tipdan boshqa tip nomga o'tishi. Masalan: **Semurg'** (mifozoonim) > **Semurg'** (antroponim), **Semurg' ko'chasi** (godonim); **Humo** (mifozoonim) > **Humo ko'chasi** (godonim), **"Humo" sport majmuasi** (ergonim) va boshqalar.

Toponimik makroko'lamga doir transtonimizatsiya, ya'ni transtoponimizatsiyani ham ikki turga ajratish mumkin:

1. tashqi transtoponimizatsiya;
2. ichki transtoponimizatsiya.

Tashqi transtoponimizatsiyada toponimik makroko'lam birliklaridan boshqa onomastik ko'lam birliklari hosil qilinadi. Masalan: **Chortoq shahri** > **"Chortoq" mineral suv zavodi**, **"Chortoq" fermer xo'jaligi**; **Namangan shahri** > **Namangan diagnostika markazi**, **"Namangan" mehmonxonasi** va boshqalar.

Toponimiyada tashqi transtonimizatsiya natijasida boshqa onomastik birliklardan quyidagi toponim turlari hosil bo'lishi kuzatiladi:

1. antropotoponimlar;
2. etnotoponimlar;
3. mifotoponimlar;
4. geortotoponimlar;
5. zootoponimlar;
6. fitotoponimlar va boshqalar.

Oykonim (grekcha *oykos* – "turarjoy" + *onoma* – "nom") — shahar, shaharcha, ovul, qishloq kabi aholi manzillarining atoqli otidir. Oykonimlar ikki turga bo'linadi:

1. **Astionimlar**. Bu termin grekcha bo'lib, "shahar nomlari" ma'nosini anglatadi. Tadqiqotlarda unga sinonim sifatida **polisonim** termini ham qo'llanadi.
2. **Komonimlar**. Komonim (grekcha *komos* – ovul, qishloq, shaharcha + *onoma* – nom) — qishloq, ovul, mahalla kabi aholi turarjoylarining atoqli nomlari.

Demak, oykonimlar sirasiga shahar, shaharcha, qishloq, ovul va mahallalarning atoqli nomlari kiradi.

Oykonimlardan, xususan, polisonimlardan quyidagi toponimik va onomastik birliklar hosil qilinadi:

1. Xoronimlar

Transtoponimizatsiya xoronimlar mikroko'lamida ham faol qo'llanadi. Bu jarayonda oykonimlar, aniqrog'i, markaziy shahar va shaharcha nomlaridan ma'muriy-hududiy birliklar — viloyat, tuman nomlari, ya'ni xoronimlar hosil qilinadi. Masalan: **Namangan shahri** > **Namangan viloyati** > **Namangan tumani** > **Yangi Namangan tumani**; **Chortoq shahri** > **Chortoq tumani**; **Uychi shaharchasi** > **Uychi tumani**; **Chust shahri** > **Chust tumani**; **Uchqo'rg'on shahri** > **Uchqo'rg'on tumani** va boshqalar.

2. Godonimlar

Polisonimlardan godonimlar, ya'ni ko'cha va shohko'cha nomlari hosil qilinadi. Godonimlar urbanonimlarning bir turidir. **Urbanonim** (lot. *urbanus* – shaharga oid + *onoma* – nom) — shahar ichida joylashgan topografik obyektlar atoqli otlari. **Godonimlar** esa shahar hududidagi yo'nalishli obyektlar — shohko'cha, ko'cha, tor ko'cha, bulvar, xiyobon, qirg'oq va sohil nomlaridir. Masalan: **Bobur shoh ko'chasi**, **Navoiy shoh ko'chasi** (Namangan shahri) va

boshqalar.

Aksariyat godonimlar harakat yoʻnalishi motivatsiyasi asosida polisonim va komonimlardan tranonimizatsiya usulida hosil qilinadi. Masalan: **Andijon koʻchasi** (Namangan shahri), **Chortoq koʻchasi** (Uychi tumani Mashad qishlogʻi), **Uychi koʻchasi**, **Axsi koʻchasi**, **Margʻilon koʻchasi** va hokazo.

3. Daha nomlaridan bozor nomlari

Masalan: **Sardoba dahasi** > **Sardoba bozori**, **Chorsu dahasi** > **Chorsu bozori**, **Lola dahasi** > **Lola bozori** (Namangan shahri).

4. Transport yoʻnalishlari nomlari

Masalan: **“Goʻzal”** – **“Chorsu”** marshruti, **“Lola”** – **“Oromgoh”** marshruti, **Namangan** – **Chortoq**, **Namangan** – **Uychi** marshrutlari va boshqalar.

5. Ergonimlar

Masalan: **“Chorsu” mehmonxonasi**, **Namangan diagnostika markazi**, **“Namangan” mehmonxonasi** (Namangan shahri).

Masalan, **“Sarkor”** qabristoni (nekronim, Chortoq tumani Koroskon shaharchasi) tranonimizatsiya usulida mahalla nomi (oykonim)ga, undan shu mahallaga olib boruvchi koʻcha nomi (godonim)ga oʻtgan: **“Sarkor” qabristoni** > **“Sarkor” mahallasi** > **“Sarkor” koʻchasi**.

Markaziy koʻchalar va magistral yoʻllar ham transtoponimizatsiya asosida bir necha toponimlarning, xususan, polisonimlarni juftlash asosida hosil qilingan. Masalan: **Namangan** – **Uychi** – **Uchqoʻrgʻon yoʻli**, **Namangan** – **Chortoq yoʻli**, **Namangan** – **Yangiqoʻrgʻon yoʻli** va boshqalar. Bunday dromonimlar viloyat markazi hamda tuman markazini ifodalovchi polisonim va komonimlar tranonimizatsiyasi asosida shakllangan.

Oykonimlar mikrokoʻlamida mahalla nomlari ham salmoqli oʻrin tutadi. Markaziy shaharlarda aksariyat mahalla nomlari tarixiy, qoʻshni qadimiy va zamonaviy shaharlar (polisonimlar), respublika va uning tarixiy nomlari (xoronimlar)ni abadiylashtirish motivatsiyasi asosida tranonimizatsiya usulida yuzaga kelgan. Masalan: **Ashxobod**, **Boku**, **Chirchiq**, **Movarounnahr** va boshqalar.

Shuningdek, bekat, avtostansiya va toʻxtash joylarining atoqli nomlari ham transtoponimizatsiya usulida shahar, shaharcha, mahalla va daha nomlaridan hosil qilinadi. Bu toponimlarning orientir, aniqlagich va koʻrsatkich vazifasini bajarishi bilan bogʻliq tarzda yuzaga kelgan. Masalan: **“Lola” bekat**, **Uychi boshbekati**, **Chortoq boshbekati**, **Uychi pitak**, **Chortoq pitak**, **Yangiqoʻrgʻon pitak** (Namangan shahri) va boshqalar.

Mazkur tadqiqot oʻzbek tili onomastik tizimining ichki strukturasi va dinamik rivojlanish qonuniyatlarini yoritishda tranonimizatsiya hodisasining alohida oʻrin tutishini koʻrsatdi. Aniqlanishicha, onomastik makro va mikrokoʻlamlar oʻzaro mustahkam sistemaviy bogʻliqlikda faoliyat yuritadi va ular oʻrtasidagi chegaralar nisbiy xarakterga ega boʻlib, aynan tranonimizatsiya jarayonida yanada yaqqol namoyon boʻladi.

Tadqiqot natijalari tranonimizatsiyaning oʻzbek tilida keng tarqalgan, sermahsul va koʻp qirrali hodisa ekanini dalillaydi. Onomastik birlikning boshqa birlikka oʻtishi nafaqat nominativ ehtiyojni qondiradi, balki til tizimining ichki iqtisodiyligi, uzviyligi va funksional moslashuvchanligini ham taʼminlaydi. Shu maʼnoda, tranonimizatsiya tilning onomastik qatlamida yuz beruvchi transformatsion jarayonlarning muhim koʻrinishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida tranonimizatsiyaning turli koʻrinishlari — tashqi va ichki, shuningdek, onomastik birliklararo (antroponim, toponim, etnonim, mifonim va boshqalar) oʻtishlar tizimli ravishda tavsiflandi. Bu esa oʻzbek onomastikasida nominatsiya jarayonlarining koʻp bosqichli va ierarxik xarakterga ega ekanini koʻrsatadi.

Tranonimizatsiya hodisasi faqat lingvistik birliklar oʻrtasidagi shakliy yoki semantik almashinuv emas, balki ijtimoiy, tarixiy va madaniy omillar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan murakkab jarayon sifatida namoyon boʻladi. U orqali jamiyatning tarixiy xotirasi, etnik tarkibi,

hududiy o'ziga xosligi va madaniy qadriyatlarini til birliklarida aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, transonimizatsiya o'zbek tili onomastik tizimining ichki rivojlanishini ta'minlovchi, uning strukturaviy yaxlitligini mustahkamlovchi va nominativ imkoniyatlarini kengaytiruvchi hodisa sifatida e'tirof etiladi. Mazkur hodisani chuqur va kompleks o'rganish o'zbek tilshunosligida onomastika nazariyasini yangi ilmiy bosqichga olib chiqish bilan birga, umumiy tilshunoslik doirasida ham muhim nazariy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Суперанская А. В. Ономастические универсалии // *Восточнославянская ономастика*. – М.: Наука, 1972.
2. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978.
3. Горбаневский М. В. Лексико-семантический и словообразовательный анализ русской ойконимии (междуречья Оки, Москвы, Нары): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1980.
4. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988.
5. Карпенко Ю. О. Онимизация и трансонимизация как словообразовательный акт // *Теоретическая и историческая ономастика*. – Одесса: ОГУ, 1990.
6. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Т.: Маънавият, 1998.
7. Супрун В. И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал: дис. ... д-ра филол. наук. – Волгоград: Перемена, 2000.
8. Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Т., 2002.
9. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
10. Чуб Т. В. Трансонимизация как явление языка и средство поэтики онимов // *Логос ономастики*. – Донецк, 2006.
11. Яковенко М. В. Трансонимизация как ономастическая универсалия. – 2009.
12. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Т.: Муҳаррир, 2009.
13. Ларина Т. И. Трансонимизация имен собственных в публицистике // *Язык. Общество. Проблемы межкультурной коммуникации: материалы междунар. науч. конф.* – Грозный: ГрГУ, 2012.
14. Мирзаев И. Ономастика тадқиқиға доир айрим мулоҳазалар // *Ономастика: илмий мақолалар тўплами*. – Самарқанд, 2013.